TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

G'ULOMOV SHERZOD RAJABOYEVICH

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA TARMOQ TRAFIGINI FILTRLASHNING USULI VA VOSITALARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

UDK: 004.056.57

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc) on technical sciences

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

G'ULOMOV SHERZOD RAJABOYEVICH

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA TARMOQ TRAFIGINI FILTRLASHNING USULI VA VOSITALARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/T770 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Karimov Madjit Malikovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Raxmatullayev Marat Alimovich** texnika fanlari doktori, professor
	Kerimov Kamil Fikratovich texnika fanlari doktori, dotsent
	Kuryazov Davlatyor Matyakubovich fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 29-iyun soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, faks: (99871) 238-65-52, e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 317 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-65-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 21-iyunda tarqatildi.
(2024-yil 21-iyundagi № 13 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.Sh. Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.S. Saitkamolov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

S.K. Ganiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyo bo'ylab axborot-kommunikatsiya tizimlarining tez sur'atlarda rivojlanishi va joriy etilishi natijasida foydalanuvchilarga taqdim etilgan imkoniyatlar bilan bir qatorda tarmoqlarda tahdid va hujumlarning ulushi ham ortib bormoqda. Dunyodagi AyTi kompaniyalarining statik ma'mulotlari tahlili natijasidan xulosa qilish mumkinki, axborot-kommunikatsiya tizimlarida DDoS hujumlarining amalga oshirilishi darajasi yuqori. Xususan, CloudFlare kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilning ikkinchi choragida HTTP DDoS hujumlari hajmi birinchi chorakdagiga nisbatan 15% ga, uchinchi chorakda esa bu ko'rsatgich 65% ga oshganligini[1] ko'rish mumkin. Alohida ta'kidlash kerakki, deyarli barcha turdagi hujumlarni amalga oshishiga hujumlarni aniqlash tizimlari va tarmoqlararo ekranlarning sozlashdagi kamchiliklar va hujumlarni bartaraf etishning yetarlicha modullarga ega emasliklari sabab bo'lgan. Tarmoq paketlari qoidalarini optimallashtirish, tarmoq trafigidagi anomal holatlarni aniqlash va identifikatsiyalashning axborot modellarini takomillashtirish, tarmoqda bo'ladigan hujumlarni aniqlash va bartaraf etish, tarmoq trafigini filtrlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Braziliya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon tajribasiga ko'ra, axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq hujumlarini aniqlash va bartaraf etishga asoslangan trafikni filtrlash modellarini, usullarini va algoritmalarini, tarmoq paketlaridagi anomaliyalarni aniqlash usullarini va shubhali paketlarni aniqlash vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigini filtrlashning usul va vositalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida bir qator ilmiy natijalarga erishildi, jumladan, ma'lumotlar proksi-serverlari va kognitiv tarmoqlararo ekranlar ishlab chiqilgan (Massachusets texnologiyalar instituti, AQSh); uzatish blokini o'zgartirish funksiyasi va atribut qiymatini xaritalash funksiyasini qo'shish orqali COAST tarmoqlararo ekran mos yozuvlar modelining imkoniyatlari takomillashtirilgan (Zhejiang universiteti, Xitoy Xalq Respublikasi); protokollar va xizmatlarni tasniflash, OSI modelining tarmoq sathidan ilova sathigacha turli darajadagi trafikni kuzatish va blokirovka qilishga imkon beruvchi Next Generation Firewall yangi avlod tarmoqlararo ekrani ishlab chiqilgan (TexArgos kompaniyasi, Rossiya Federatsiyasi); tarmoq xavfsizligini samarali ishlashga xizmat qiluvchi ruxsat berish va rad etish algoritmlari ishlab chiqilgan va mininet nomli tarmoq simulyatsiya platformasi asosida algoritmning samaradorligi isbotlangan (Jon Hopkins universiteti, AQSh); paketlarni filtrlash qoidalarini optimallashtirish asosida fishing hujumlari sonini kamaytiruvchi himoya strategiyasi va Honeypot tizimi ishlab chiqilgan (Aydaho Davlat universiteti, AQSh); tarmoqlararo ekranlarni Networks-on-Chip (NoC) marshrutizatorlari orasiga o'rnatish orqali paket sarlavhalarida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi

[1] https://blog.cloudflare.com/ddos-threat-report-2023-q3/

usul ishlab chiqilgan (Myunxen texnika universiteti, Germaniya va San-Paulu universiteti, Braziliya). Bu borada, paketlarni filtrlash qoidalarini optimallashtirish, SDN tarmoqlarida trafikni filtrlashni amalga oshirish usullari, ishchi stansiyalarda zararli tarafikni aniqlash algoritmlari va veb-resurslarni filtrlash arxitekturalarini takomillashtirish va ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanmoqda. Ushbu muammolarni yechish maqsadida bir qator yangi turdagi hujumlarni aniqlash, baholash va ularni bartaraf etish usullari va vositalarini takomillashtirishni ilmiy tomondan asoslash talab etiladi.

Respublikamiz miqyosida davlat va xo'jalik boshqaruv hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida tarmoqni ichki va tashqi hujumlardan himoyalash jarayonida tarmoq trafigini filtrlashning usul va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi «..."UZ" domen zonasi Internet-makonining kiberxavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini hamda elektron hukumat, energetika, raqamli iqtisodiyot tizimlarini va muhim axborot infratuzilmasiga taalluqli boshqa yo'nalishlarni himoya qilish bo'yicha kompleks vazifalarni belgilash...»[2] vazifalari keltirilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda, axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq paketlari anomaliyalarini aniqlash modellarini, tarmoq paketlarini filtrlash usullari va algoritmlarini hamda tarmoqda shubhali paketlarni bartaraf etish vositalarini takomillashtirish va ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 14-sentabrdagi PQ-4452-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4024-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga mansub boshqa me'yoriy va normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar sharhi[3]. Axborot-

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

[3] Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi https://link.springer.com, https://www.researchgate.net, www.elsevier.com, https://scholar.google.com, https://habr.com va boshqa manbalar asosida shakllantirilgan.

kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigini filtrlashning usul va vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning eng ilg'or va yetakchi ilmiy tekshirish institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan Sababa Security kompaniyasi (Italiya), Cybergamp kompaniyasi (Ispaniya), Geedge Networks (Xitoy Xalq Respublikasi), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), London Imperial kolleji (Buyuk Britaniya), Massachusets texnologiya instituti (AQSh), Berkeley, Kaliforniya universiteti (AQSh), Jon Hopkins universiteti (AQSh), Shimoliy Djorjiya universiteti (AQSh), Aydaho Davlat universiteti (AQSh), Dublin Siti universiteti (Irlandiya), Myunxen texnika universiteti (Germaniya), Zhejiang universiteti (Xitoy Xalq Respublikasi), N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti (Rossiya Federatsiyasi), TexArgos kompaniyasi (Rossiya Federatsiyasi), Janubiy Koreya fan va texnologiya ilmiy instituti (Janubiy Koreya), Tokio texnologiya instituti (Yaponiya), Waseda universiteti (Yaponiya), San-Paulu universiteti (Braziliya) va respublikamizda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent shahridagi Inxa universiteti, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, "Kiberxavfsizlik markazi" davlat unitar korxonasi, "UNICON.UZ" Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi davlat unitar korxonasida olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Denis Salopek real vaqtda paketlarni filtrlash uchun gibrid apparat/dasturiy vositalarni ishlab chiqish, Chun-Liang Lee, Guan-Yu Lin, Yaw-Chung Chen kabi tadqiqotchilar ko'p o'lchovli paketlarni filtrlashda ziddiyatni tezkor aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Luis A.Trejo, Viktor Ferman, Miguel Angel Medina-Perez, Fernando Miguel Arredondo Giacinti, Raul Monroy, Jose Emanuel Ramirez-Marquez kabi tadqiqotchilar DNS-ADVP: Mashinali o'qitish orqali anomaliyalarni aniqlash va yuqori darajadagi domen nomlari serverlarini DDoS hujumlaridan himoya qilish uchun vizual platformalarni tatbiq qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Joker belgilarsiz bir nechta maydonlar asosida SDN paketlarini segmentlashning umumiy yondashuvlari bo'yicha H.Alimohammadi, M.Ahmadi kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va hozirda ham ular boshchiligidagi ilmiy maktablar tomonidan davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, Palo Alto Networks, InfoWatch, McAfee, Fortinet, Crowdstrike, Trend Micro, SababaSecurity, CyberGamp, Gen Digital, IBM, CyberArk va Cisco kompaniyalari va tashkilotlari tomonidan tarmoq paketlari qoidalarini optimallashtirish va yangi turdagi apparat-dasturiy tarmoqlararo ekranlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy va muhandislik-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekistonda T.F.Bekmuratov, S.K.G'aniyev, M.M.Karimov, R.H.Hamdamov, A.A.Ganiyev, K.A.Tashev, Z.T.Xudoykulov, N.B.Nasrullayev, O.M.Allanovlar rahbarligidagi ilmiy jamoalar tomonidan axborot-kommunikatsiya tizimlarida suqilib kirishlarni aniqlash va bartaraf etish, axborot xavfsizligini ta'minlash modellarini boshqarish, kompyuter tarmoqlarida foydalanishni cheklashning usul va vositalari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar

olib borilmoqda.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigida anomaliyalar va noqonuniy harakatlarni aniqlash tizimlari, DNS serverlarida zararli trafikni bartaraf etish modeli, tarmoq hujumlarini bartaraf etishda DSCPga asoslangan trafikni filtrlash va SDN tarmoqlarida trafikni filtrlashni amalga oshirish usullari hamda trafikni filtrlash qoidalarini optimallashtirish algoritmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 598661-EPP-12018-1-RO-EPPKA2-CBHE-JP "Developing Services for Individuals with Disabilities–DECIDE" (2019-2022), 598092-EPP-1-2018-1-BG-EPPKA2-CBHE-SP "Modernization of Higher Education in Central Asia through New – HiEdTec" (2019-2022) va «UNICEN loyihasi "Accreditation, Assessment and Improving Student Outcomes" (2021-2022) mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborot-kommunikatsiya tizimlarini himoyalash samaradorligini oshirishga imkon beruvchi tarmoq trafigini filtrlashning usul va vositalarini takomillashtirish va ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigining o'tkazuvchanlik qobiliyatini o'lchash usullarini tasniflash va tarmoq trafigini filtrlash usullarini qiyosiy tahlillash;

tarmoq trafigida anomal holatlarni aniqlash va identifikatsiyalashning axborot modelini ishlab chiqish;

DNS serverlarida bo'ladigan zararli trafikni bartaraf etish va u bilan bog'liq hujumlardan himoyalanish modelini takomillashtirish;

differensial xizmatlarning kod nuqtasi asosida tarmoq trafigini filtrlash usulini takomillashtirish;

tarmoq paketlarining yo'qolishini minimallashtirish va ularning xizmat ko'rsatish sifatini oshirish usulini takomillashtirish;

tarmoq trafigi xatti-harakatlariga muvofiq paketlarni filtrlash qoidalarida risklarni aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish;

tarmoq trafigida veb-resurslarni zararli botlar va shubhali paketlardan himoyalash algoritmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tarmoq xavfsizligi kontekstida axborot-kommunikatsiya tizimlarining ma'lumotlar oqimi olingan.

Tadqiqotning predmetini axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigini filtrlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ehtimollar nazariyasining asosiy tamoyillari, axborotni himoyalash usullari, matematik modellashtirish, sun'iy intellekt, obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari, shuningdek, dasturiy vosita yordamida ularning ishonchliligini aniqlash uchun tajribaviy tadqiqotlar natijalariga asoslangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarmoq trafigi faoliyatini baholash va monitoringlash asosida tarmoqda yuzaga keluvchi zaifliklar va nosozliklar holatlari haqida ogohlantirishlar berish orqali tashqi tahdidlar ta'sirini minimallashtirish hamda tarmoq anomaliyalarini identifikatsiyalashning axborot modeli ishlab chiqilgan;

mashinali o'qitish usullari asosida DNS serverlariga bo'ladigan zararli so'rovlarni aniqlash va blokirovka qilish hamda DNS-trafik bilan bog'liq boshqa turdagi, jumladan, DDoS hujumlaridan himoyalashning zararli trafikni bartaraf etish modeli takomillashtirilgan;

differensial xizmatlarning kod nuqtasi asosida tarmoqda IP-manzilli nizolar xavfini kamaytirish hamda DHCP paketlarining maksimal sonini cheklash qoidasini o'rnatish orqali DHCP serverining ortiqcha yuklanishini bartaraf etishning filtrlash usuli takomillashtirilgan;

TCP psevdo-sarlavhasini qo'shish orqali tarmoq trafigi oqimini normallashtirish, ma'lumotlar almashinuvini niqoblash va uzatiladigan tarmoq paketlari kechikishini boshqarish hamda sensorlar korrelyatsiyasi yordamida tarmoq trafigida xizmat sifatini oshirish va tarmoq paketlarining yo'qolishini minimallashtirish usuli takomillashtirilgan;

tarmoq trafigi xatti-harakatlariga muvofiq axborot xavfsizligi risklarini minimallashtirish va noravshan filtrlashni qo'llash orqali paketlarni filtrlash unumdorligini oshirish hamda tarmoq paketlarini qabul yoki rad etishda qoidalarning eng yuqori ustuvorligini aks ettirish algoritmlari ishlab chiqilgan;

veb-so'rovlarni ishlash bloklari asosida veb-resurslarni zararli botlardan himoya qilish, veb-sahifalarni haqiqiyligini tekshirish, domenlarni onlayn tahdidlar va soxta fishing hujumlaridan himoya qilish hamda tizimda bo'ladigan yolg'on xabarlarni minimallashtirish algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

SDN tarmoqlarida orkestrator va paketlarni filtrlash modullari asosida trafik oqimlarini monitoringlash hamda tarmoqda suqilib kirishi mumkin bo'lgan har qanday zararli yoki istalmagan kontentni bartaraf etish usuli takomillashtirilgan;

tarmoq trafigida tarmoqlararo ekrandagi tugunlar soni ortishi bilan tarmoq paketlari qoidalarini ishlash vaqtini kamaytirish, paketlarning to'lib-toshishi va ortiqchaligi hamda tarmoqda bo'ladigan IP-Spoofing hujumlarini minimallashtirishga imkon beruvchi filtrlash algoritmlari optimallashtirilgan;

giperhavola funksiyalaridan foydalanish hisobida veb-sahifalarni haqiqiyligini tekshirish, domenlarni soxta fishing hujumlaridan hamda onlayn tahdidlar va nol hujumlaridan himoyalash algoritmi ishlab chiqilgan;

ko'p faktorli trafik tahlili asosida DDoS hujumlari so'rovlarini blokirovkalash, ochiq VPN xizmatini amalga oshirish, URL filtri jurnallarini nazoratlash, axborotni lokatsiya bo'yicha filtrlash, IP-tables ishlashini amalga oshirish va tizimga zararli kodlar kirishini minimallashtirish dasturiy vositasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, "Kiberxavfsizlik markazi" DUK davlat unitar korxonasining statistik

ma'lumotlaridan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati takomillashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlarida anomal holatlarni aniqlash va identifikatsiyalashning axborot modeli, DNS serverlarida bo'ladigan zararli so'rovlarni aniqlash va bartaraf etish modeli, differensial xizmatlarning kod nuqtasi asosida tarmoq trafigini filtrlash usuli, tarmoq paketlarining yo'qolishini minimallashtirish va ularning xizmat ko'rsatish sifatini oshirish usuli, tarmoq paketlari qoidalari algoritmlarini takomillashtirish va optimallashtirish hamda tarmoq trafigida axborotni himoyalash tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan modellar, usullar va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita yordamida tarmoq paketlarida mavjud risklarni minimallashtirish, veb-resurslarni zararli botlardan va shubhali trafikdan himoyalash, DDoS hujumlari so'rovlarini blokirovkalash, ochiq VPN xizmatlarini amalga oshirish, URL filtri jurnallarini nazoratlash, axborotni lokatsiya bo'yicha filtrlash hamda tizimga zararli kodlarning kirishini minimallashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigini filtrlashning usul va vositalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

veb-hujumlardan himoyalashda veb-resurslarni filtrlash arxitekturasi asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani hokimligi axborot tizimining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil fevraldagi 33-8/916-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi Kerio Control 8.3.0 vositasi bilan solishtirganda ma'lumotlarni uzatish tezligi 1 Gbit/s va o'rtacha paket hajmi 12000 bit bo'lganda, 2,7 barobar tezroq ishlash imkonini bergan, ya'ni Kerio Control 8.3.0 vositasida paketlarni qayta ishlash vaqti 0,000005, UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasida esa 0,000002 soniyalarni tashkil qilgan;

IP-manzilli nizolar xavfini kamaytirish hamda DHCP paketlarining maksimal sonini cheklash qoidasini o'rnatish orqali DHCP serverining ortiqcha yuklanishini bartaraf etish usuli va giperhavola funksiyalaridan foydalanib veb-sahifaning qonuniyligini tekshirish hamda domenlarni soxta fishing hujumlardan hamda onlayn tahdidlar va nol hujumlardan himoya qilish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil fevraldagi 33-8/916-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijasida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vosita vazirlikning axborot tizimida mumkin bo'lgan tarmoq hujumlarini 96% aniqlik bilan aniqlash va bartaraf etishga imkon bergan;

trafik xatti-harakatlariga muvofiq qoidalar harakatlarini o'zgartirish, muhim ma'lumotlar uchun yuqori darajadagi xizmatni taqdim etish va tarmoq xizmati sifatini oshirish hamda tarmoq paketlarini qabul va bekor qilishda qoidalarning eng

yuqori ustuvorligini aks ettirish arxitekturasi va algortimlari asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi "O'zkomnazorat" inspeksiyasi Toshkent shahar hududiy bo'limi korporativ tarmog'ining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil fevraldagi 33-8/916-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi o'zining asl maksimal o'tkazuvchanlik holatidan 3 baravar unumdor ishlashga imkon bergan, bunda nisbiy masshtablilik qobiliyati 300% ni tashkil etgan hamda mazkur vositada normal yuklanish ishlashiga nisbatan maksimal yuklanish 250% ga, ya'ni 2,5 marta oshganligi aniqlangan;

TCP psevdo-sarlavha qo'shish orqali tarmoq trafigi oqimini optimallashtirish, tarmoqni ishdan chiqish holatlarini kamaytirish, TCP psevdo-sarlavha port raqamini o'zgartirish orqali ma'lumotlar almashinuvini niqoblash va uzatiladigan tarmoq paketlari kechikishini boshqarish usuli asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi O'zbektelekom AK "Samarqand shahar telekommunikatsiya bog'lamasi" aloqa va telefoniya tarmog'ining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil fevraldagi 33-8/916-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi tarmoq trafigida shubhali paketlarni blokirovkalashda 95% samarali ishlash imkonini bergan. Mazkur dasturiy vositadan foydalanish tashkilotning tarmoq tizimidagi ma'lumotlarini filtrlash va ulardagi shubhali paketlarni yuqori aniqlikda aniqlash imkoniga ega bo'lish bilan bir qatorda, tashkilotning axborot tarmog'idagi axborot xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishga ham imkon bergan;

SDN tarmoqlarida trafikni filtrlashni amalga oshirish usullari va ishchi stansiyalarda zararli tarafikni aniqlash algoritmlari asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi korporativ tarmog'ining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil fevraldagi 3/22-21/02-02-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijasida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasining 2 soat mobaynida tarmoq hujumlariga o'rtacha javob vaqti 2,6 daqiqani tashkil etdi. Yuqorida keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, mazkur dasturiy vosita hujumlarga tezroq javob qaytarish imkonini bergan;

paketlarni filtrlash qoidalari algoritmlarini takomillashtirish va optimallashtirish natijasida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi "UZINFOCOM Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator" MChJ korporativ tarmog'ining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil fevraldagi 33-8/916-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi 1 soat mobaynida tizimda 11230 paketlardan 9456 paketlarni tahlillashga erishgan va paketlarni filtrlash samaradorligi 84% ni tashkil etgan;

taklif etilgan usullar, algoritmlar va arxitekturalar asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi "Kibernetikada innovatsiyalar IT-parki" MChJ korporativ tarmog'ining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (Kiberxavfsizlik markazi davlat unitar korxonasining 2024-yil fevraldagi 03-18-01/410-son ma'lumotnomasi). Sinov davomida mazkur vosita 1 soat davomida umumiy 9764 ta hodisalarni aniqlab, bulardan 546 ta hujum va 22 ta yolg'on ogohlantirishlarni aniqlashga erishdi. Shunda vositaning yolg'on ogohlantirishlar ulushi 4% ni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, erishilgan ko'rsatkichlar tizimning hujumlarga qanchalik tez javob berishini va ularni blokirovkasini aniqlash, vaqt o'tishi bilan javob vaqtlarini baholash hujumlarining paydo bo'lishi tendensiyalarini va tarmoqlararo ekranlar javob vaqtlaridagi o'zgarishlarni ochib berish hamda tarmoq xavfsizlik strategiyalari va jarayonlarini takomillashtirishga imkon bergan;

tarmoq trafigining filtrlash usuli va tarmoq paketlari qoidalarini qayta ishlash vaqtini minimallashtirish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi Avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi huzuridagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" korporativ tarmog'ining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazinnig 2024-yil apreldagi 24/32-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijasida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi sezuvchanlik mezoni bo'yicha barcha joriy tarmoq anomaliyalarining taqriban 92% ini hamda aniqlik mezoni bo'yicha tarmoq anomaliyalari sifatida tasniflangan barcha hodisalarning taqriban 84% ini aniqlashga imkon bergan;

veb-resurslarni zararli botlar va shubhali paketlardan himoyalash algoritmlari asosida ishlab chiqilgan UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi "Xavfsiz shahar" tizimlarini rivojlantirish markazi" korporativ tarmog'ining amaliy faoliyatiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi "Xavfsiz shahar" tizimlarini rivojlantirish markazining 2024-yil apreldagi 03/419-son ma'lumotnomasi). Sinov davomida UzFirewall-next generation firewall dasturiy vositasi Gauss taqsimoti funksiyasi asosida tarmoq paketlari xususiyatlarini baholashda tarmoq paketlarining normal trafikka tegishlilik ehtimolligi taqriban 0,7% va hujumkor trafikka tegishlilik ehtimolligi 0,2% ni tashkil etilganligi qayd etilgan. Ushbu baholash tarmoq trafigini tasniflash usullarining samaradorligini miqdoriy baholash va ularning ish faoliyatini aniqlashga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha jami 37 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta maqola, jumladan, 10 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda EHM uchun yaratilgan 3 ta dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob,

xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 184 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati keltirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan. Ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga tatbiq etish ro'yxati taqdim qilingan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigini himoyalash usullarining tahlili"** deb nomlanuvchi birinchi bobi axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigi xavfsizligini ta'minlash usullariga, o'tkazuvchanlik qobiliyatining o'lchash usullarini tahlillash va tarmoq trafigini tasniflash hamda filtrlashning mavjud usullarini muammolariga bag'ishlangan.

Respublikamizda raqamli iqtisodiyot tizimining shakllantirilishi va uning zamirida davlat boshqaruv organlari hamda aholi o'rtasidagi o'zaro aloqaning mustahkamlanishini tashkil etish tarmoqdan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tarmoqdan samarali foydalanish axborotlashgan demokratik jamiyatni shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotni yig'ish, saqlash, ishlash va ulardan foydalanish bo'yicha tezkor natijaga ega bo'linadi. Tahlil natijalariga asoslanib jahonda DDoS hujumlari soni o'sishda davom etmoqda va Cisco ma'lumotlariga ko'ra, bu o'sish 2023-yil oxiriga kelib, 2018-yilga nisbatan ikki baravar ko'proq hujumlar sodir etilganligini ko'rish mumkin. 1-rasmda 2018-2023-yillarda DDoS hujumlarining o'rtacha yillik o'sish sur'ati taqdim etilgan.



1-rasm. DDoS hujumlarining 2018-2023-yillardagi o'rtacha yillik o'sish sur'ati

Taqsimlangan axborot-kommunikatsiya tizimlariga hujumlar natijasida kelib chiqadigan tahdidlarni aniqlash va ularga javob berishning samarali usullarini talab qiladi. Eng katta muammo tanlangan tarmoq trafigi atributlari to'plamining xususiyatlari g'ayritabiiy xatti-harakatlarga ega hujumlar tufayli yuzaga keladi.

Trafikni filtrlash tizimlarini ishlab chiqish yo'nalishlaridan biri tarmoq trafigini tasniflash bo'lib, u xizmat ko'rsatish sifatini nazoratlash va kanal o'tkazuvchanligini samarali boshqarish imkonini beradi. Yondashuvlar sonining ko'payishi bilan ularni tasniflash zarurati paydo bo'ldi. Trafikni tasniflash usullari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Tarmoq trafigini tasniflash usullari

Bunda tarmoq trafigini tasniflash usullarini tahlillash asosida xost va portlarning anomal xatti-harakatlarining xarakteristikalari va foydali yuklamalari aniqlanadi. Bu esa tarmoqda xizmat ko'rsatish sifatini nazoratlash va trafikni filtrlashning yanada takomillashgan tizimini yaratish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Axborot-kommunikatsiya tizimlarida zararli trafikni aniqlash modellari"** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida tarmoqdagi zararli trafik turlari va ularni aniqlash usullari tahlil etilgan. Tarmoq trafigida tarmoq anomaliyalari va noqonuniy harakatlarni aniqlash bosqichlarining tahlili natijasida ularni aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan. Tarmoqdagi holatlarni boshqarish va tahlili asosida tarmoq trafigini identifikatsiyalashning axborot modeli taklif etilgan. Tarmoq trafigi tasniflagichini o'qitish hamda mashinali o'qitish usullarini qo'llagan holda DNS serverlarida zararli trafikni bartaraf etish modeli takomillashtirilgan.

Tarmoq trafigidagi anomaliyalarni aniqlash, umuman olganda, normal ma'lumotlarni u yoki bu tarzda tavsiflash, model yaratish va undan har qanday og'ishlarni anomal deb hisoblash mumkin. Bunda quyidagi jiddiy qiyinchiliklarga duch kelinadi:

– normal nima ekanligini aniqlashdagi qiyinchilik, normal va anomal ma'lumotlar o'rtasidagi chegaraning noaniqligi;

– ma'lumotlarga normal ko'rinish berish uchun buzg'unchining o'z harakatlarini niqoblashi;

– ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi tizimlarning rivoji, normal tushunchasining vaqt o'tishi bilan o'zgarishiga olib keladi;

– tasniflagichlarni o'qitishda normal va anomal ma'lumotlarning mavjud emasligi.

Yuqoridagi kamchiliklarni minimallashtirish maqsadida 3-rasmda tarmoq trafigida anomaliyalar va noqonuniy harakatlarni aniqlash algoritmining blok-sxemasi keltirilgan.



3-rasm. Tarmoq trafigida anomaliyalar va noqonuniy harakatlarni aniqlash algoritmining blok-sxemasi

Bundan tashqari, tarmoq trafigini identifikatsiyalashda tarmoqni boshqarish obyekti sifatida axborot modelini yaratish maqsadga muvofiq sanaladi. 4-rasmda tarmoq trafigini identifikatsiyalashning axborot modeli taklif etilgan.



4-rasm. Tarmoq trafigini identifikatsiyalashning axborot modeli

Tarmoq trafigini identifikatsiyalashning axborot modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$y = f(M, S, I, u, z, w), \quad (1)$$

bu yerda, M – tarmoq trafigini ma'lumotlari to'plami; S – tarmoq siyosati to'plami; I – tashqi ta'sirlarning ma'lumotlari to'plami; u – boshqaruv ta'sirlari; z – tarmoq trafigining monitoringi; w – tarmoq trafigining buzilishlari; y – tarmoq faoliyatini baholash.

Quyida $y = f(M, S, I, u, z, w)$ funksiyasini matematik ifodalash mumkin:

$$y = f(M, S, I, u, z, w) = [f_1(M, S, I, u, z, w), f_2(M, S, I, u, z, w), f_3(M, S, I, u, z, w), \ldots, f_r(M, S, I, u, z, w)] \quad (2)$$

Har bir qismfunksiya $y = f_i(M, S, I, u, z, w)$ quyidagicha amalga oshiriladi:

$$y = f_1(M, S, I, u, z, w) = g_1(M) + h_1(S) - \Sigma(I) + \Sigma(u) - \Sigma(z) - \Sigma(w)$$

$$y = f_2(M, S, I, u, z, w) = \alpha_2 g_2(M) + \beta_2 h_2(S) + \gamma_2 \Sigma(I) - \delta_2 \Sigma(u) - \varepsilon_2 \Sigma(z) + \varphi_2 \Sigma(w)$$

$$y = f_3(M, S, I, u, z, w) = (g_3(M) + h_3(S))\text{^}2 + \alpha_3 \Sigma(I) + \beta_3 \Sigma(u) - \gamma_3 \Sigma(z) + \delta_3 \Sigma(w)$$

$$y = f_r(M, S, I, u, z, w) = \alpha_r g_r(M) - \beta_r h_r(S) + \gamma_r \Sigma(I) - \delta_r \Sigma(u) + \varepsilon_r \Sigma(z) - \varphi_r \Sigma(w) \quad (3)$$

Ushbu ifodalarda:

– $g_i(M)$ va $h_i(S)$ –mos ravishda tarmoq trafigini ma'lumotlari to'plami M va tarmoq siyosati to'plami S ustida amallarni bajaradigan funksiyalar;

– $\Sigma(I), \Sigma(u), \Sigma(z)$ va $\Sigma(w)$ mos ravishda I, u, z va w vektorlarining elementlari yig'indisini ifodalaydi;

– $\alpha_i, \beta_i, \gamma_i, \delta_i, \varepsilon_i$ va φ_i –tarmoq trafigi komponentalarining o'lchovchi koeffitsiyentlari;

– matematik amallar $(+, -, \Sigma, \text{^}2)$ anomaliyalarni aniqlash tizimi talablariga asoslangan arifmetik amallar, statistik funksiyalar va boshqa tegishli matematik amallarni o'z ichiga oladi.

Umuman, taklif etilgan axborot modeli tarmoq trafigida bo'lishi mumkin tarmoq anomaliyalari va zaifliklarini aniqlash hamda axborot xavfsizligi risklarini kamaytirishga imkon beradi.

Shunday qilib, tarmoq trafigini identifikatsiyalashning axborot modeli asosida DNS serverlarida zararli trafikni bartaraf etish modelini quyidagi ikkita bosqichda amalga oshirish mumkin.

1-bosqich: 5-rasmda mijozdan serverga so'rov yuborishda DNS serverlarida zararli trafikni bartaraf etish modeli taklif etilgan. Mijozdan DNS serverga so'rovi avval domenlarning oq ro'yxatini filtrlash qismidan o'tadi. So'rov nomi ushbu qismda zararsiz deb tasniflanganida, paket qabul qiluvchi qismiga yo'naltiriladi. Aksincha, so'rov oq ro'yxatga mos kelmasa, paket domenning qora ro'yxatining filtrlash qismidan o'tadi.



5-rasm. DNS serverlarida zararli trafikni bartaraf etish modeli: mijozdan serverga so'rov .

Ushbu qismda so'rov zararli deb tasniflanganida, paket NULL qurilmasiga qaytariladi. Aksincha, so'rov domenning qora ro'yxatda mos kelmasa, paket qabul qiluvchi qismiga yo'naltiriladi. So'ngra xususiyatlarni ajratib olish qismi *qname*ni xususiyat vektorlariga aylantiradi va tasniflagich qismi so'rovni tasniflaydi. Agar tasniflash natijasi paketning zararsiz ekanligini ko'rsatsa, so'rov domenning oq ro'yxatiga qo'shiladi. Aksincha, agar natija zararli ekanligini ko'rsatsa, so'rov domenning qora ro'yxatiga qo'shilib, mashinali o'qitish usullarini qayta ishlovisiz shunday so'rovga ega bo'lgan DNS so'rovlarini blokirovka qiladi.

2-bosqich: 6-rasmda serverdan mijozga so'rov yuborishda DNS serverlarida zararli trafikni bartaraf etish modeli taklif etilgan.



6-rasm. DNS serverlarida zararli trafikni bartaraf etish modeli: serverdan mijozga so'rov

Serverdan mijozga so'rov yuborishda DNS serveridan kelayotgan DNS javobi avval domenning oq ro'yxatini filtrlash qismidan o'tadi. Agar so'rov ushbu qismda zararsiz deb tasniflangan bo'lsa, paket qabul qiluvchi qismiga yo'naltiriladi. Aksincha, so'rov oq ro'yxatda mos kelmasa, paket domenning qora ro'yxatining filtrlash qismiga o'tkaziladi. Agar so'rov ushbu qismda zararli deb tasniflangan bo'lsa, paket tizim tomonidan o'chiriladi va javob xabarida tekshiriladi. 1-jadvalda mashinali o'qitish usullaridan foydalangan holda DNS-serverlarida zararli trafikning bartaraf etish bo'yicha test natijalari keltirilgan.

1-jadval

Mashinali o'qitish usullaridan foydalangan holda DNS-serverlarida zararli trafikning bartaraf etish bo'yicha test natijalari

Ma'lumotlar to'plami		Mashinali o'qitish usullari	Training (80%)	Test (20%)
Soni	33925 ta satr	kNN	100	91.97
Sinfi	DrDos_DNS	SVM	100	90.94
Xususiyati	15 ta	XGBoost	100	91.92

Bu yerda ma'lumotlar to'plamini o'qitish Python dasturlash tili yordamida amalga oshirildi va test natijalari Jupyter kompilyatori orqali taqdim etilgan. Mazkur takomillashtirilgan DNS serverida zararli trafikni bartaraf etish modeli mashinali o'qitish usullari asosida mijozlardan kiruvchi, DNS serveriga bo'ladigan zararli so'rovlarni aniqlashga va DNS-trafik bilan bog'liq boshqa turdagi hujumlardan, jumladan, fishing, DDoS lardan himoya qilishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **"Axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigini filtrlashning takomillashtirilgan usullari"** deb nomlanuvchi uchinchi bobida differensial xizmatlarning kod nuqtasi asosida tarmoqda buzg'unchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan DHCP so'rovlari kabi ma'lum tarmoq hujumlarini minimallashtirish va IP-manzilli nizolar xavfini kamaytirishga imkon beruvchi tarmoq trafigini filtrlash usuli takomillashtirilgan hamda TCP psevdo-sarlavhasini qo'shish orqali xizmat sifatini oshirish va tarmoq paketining yo'qolishini minimallashtirish usuli taklif etilgan. Server va ishchi stansiyalarning buzilish ehtimolini kamaytirish va trafik oqimlarini monitoringlash, paketlarni filtrlash qoidalarini boshqarishni soddalashtirish hamda tarmoqda suqilib kirishi mumkin bo'lgan har qanday zararli yoki istalmagan kontentni bartaraf etish usullari takomillashtirilgan.

DHCP protokoli TCP/IP tarmog'ida ishlash uchun zarur bo'lgan IP-manzil va boshqa parametrlarni avtomatik ravishda olish imkonini beradi. 7-rasmda tarmoqqa ulanadigan har bir WLAN mijozi amalga oshirishi kerak bo'lgan ro'yxatga olish jarayonidan boshlab DSCP asosida DHCP paketlarini filtrlash sxemasi taklif etilgan. Bunda mazkur protokol mijoz-server modelida ishlab, foydalanuvchilarga lokal yoki Internet tarmog'i orqali ulanish imkonini beradi. DHCP protokoli har bir mijoz uchun zarur bo'lgan IP-manzilni avtomatik ravishda sozlaydi. Shuningdek, ro'yxatdan o'tgan mijozdan tashqari yuborilgan DHCP paketining DSCP qiymati 0 ga o'zgartiriladi. Keyingi bosqichda to'g'ridan-to'g'ri filtr funksiyasi har bir DHCP paketini filtrlaydi, agar DHCP paketida DSCP qiymati 40 dan 63 gacha

bo'lsa, unga paketni keyingi bosqichga o'tishiga ruxsat beriladi. Aks holda, DHCP paketi o'chirib tashlanadi.



7-rasm. DSCP asosida DHCP paketlarini filtrlash sxemasi

Tarmoq paketlarining yo'qolishini minimallashtirish va ularning xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida TCP psevdo-sarlavhasidan foydalaniladi. Paket filtrlashdan o'tganidan so'ng, TCP psevdo-sarlavhasini olib tashlash orqali, uzatish paketi asl shakliga qaytadi. 8-rasmda TCP psevdo-sarlavhasini qo'shish orqali trafikni filtrlash sxemasi taklif etilgan.



8-rasm. TCP psevdo-sarlavhasini qo'shish orqali trafikni filtrlash sxemasi

TCP psevdo-sarlavha port raqamini o'zgartirish orqali ma'lumotlar almashinuvini niqoblashga, uzatiladigan tarmoq paketlarining kechikishini boshqarishga va portlarni keng diapazondan tasodifiy tanlaydigan protokollar uchun portlarni o'zgartirishga imkon beradi. QUIC protokoli yordamida paketlarni uzatishda har bir oqim, sensorni alohida obyekt sifatida ko'rib chiqadi. Sensorlar soniyada bir necha ko'rsatkichlarni ta'minlanganliklari sababli, har bir sensor uchun nafaqat turli oqimlarni, balki har bir obyekt uchun turli oqimlarni ham qo'llash taklif etiladi. Oqimga yuborilgan barcha paketlar tan olinsa, oqim yangi obyekt uchun qayta ishlatilishi mumkin. Aksincha, agar oqim paket yo'qolishi sababli blokirovkalangan va ma'lumotlar eskirgan bo'lsa, jo'natuvchi qabul qiluvchiga ushbu oqimdan olingan barcha mavjud tartibsiz ma'lumotlarni o'chirib tashlashni va oqimni qayta o'rnatish uchun kadr yuboradi. Bir necha sensorlar QUIC soketiga ma'lumotlarni yozib boradi va sensorlar o'rtasida korrelyatsiya matritsasini ta'minlaydi. Shunday qilib, taklif etilgan usul TCP psevdo-sarlavha port raqamini o'zgartirish orqali ma'lumotlar almashinuvini niqoblashga, uzatiladigan tarmoq paketlarining kechikishini boshqarishga imkon beradi.

Dasturiy ta'minot bilan aniqlanadigan tarmoq (SDN) tarmoqni aqlli va markazlashtirilgan tarzda boshqarish imkonini beradi. Bu operatorlarga tarmoqda ishlatiladigan asosiy texnologiyadan qat'iy nazar, butun tarmoqni izchil va har tomonlama boshqarish imkonini beradi. Shunday qilib, tarmoq trafigining xavfsizligini oshirishga imkon beruvchi SDN tarmoqlarida trafikni filtrlashni amalga oshirish usuli takomillashtirilgan. 9-rasmda paketlarni filtrlash modullarining ishlash sxemasi keltirilgan.



9-rasm. Paketlarni filtrlash modullarining ishlash sxemasi

Taklif etilgan sxemada tarmoqlararo ekran funksiyasi o'zaro ta'sir qiluvchi to'rtta modul yordamida amalga oshiriladi: ilovani identifikatsiyalash moduli, paketlarni filtrlash moduli, xavfsizlik va sharhlash modullari. Taklif etilgan sxema modullarining amalga oshirilishi natijasida ko'rish mumkinki, SDN tarmoqlarida trafikni filtrlashni amalga oshirish usuli trafik oqimlarini nazorat etishga, xavfsizlikni boshqarishni soddalashtirishga va har qanday istalmagan kontentning bartaraf etishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **"Axborot-kommunikatsiya tizimlarida shubhali tarmoq paketlarini aniqlash va bartaraf etish algoritmlari"** deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida trafik xatti-harakatlariga muvofiq qoidalar harakatlarini o'zgartirish, tarmoq paketlarida risklarni minimallashtirish hamda tarmoq paketlarini qabul yoki rad etishda qoidalarning eng yuqori ustuvorligini aks ettirish algoritmlari ishlab chiqilgan. Tarmoqlararo ekrandagi tugunlar soni ortishi bilan tarmoq paketlari qoidalarini ishlash vaqtini kamaytirish, paketlarni to'lib-toshishi va IP-Spoofing hujumlarini minimallashtirishga imkon beruvchi filtrlash qoidalari algoritmlari optimallashtirilgan. Veb-resurslarni zararli botlardan himoya qilish hamda ko'p faktorli trafik tahlili asosida mavjud va yangi veb-hujumlarni bartaraf etish algoritmi ishlab chiqilgan. Giperhavola funksiyalaridan foydalanish hisobida veb-sahifalarning qonuniyligini tekshirish va domenlarni soxta fishing hujumlaridan hamda onlayn tahdidlar va nol hujumlaridan himoya qilish algoritmi taklif etilgan.

Petri noravshan tarmog'i - noravshan mantiq va Petri tarmoqlarining birikmasi. Petri noravshan tarmog'i tizim holati haqidagi noaniq bilimlarni ifodalash vositasi bo'lib, noaniq hodisa va harakat qoidalarini tavsiflash imkoniyatiga ega. Petri noravshan tarmog'ining modeli $N_f(P,T,D,I,\alpha,\beta)$ to'plami sifatida tavsiflanadi. Petri noravshan tarmog'idan tarmoqlararo ekran orqali paketlar harakatini noravshan mantiqiy boshqarishni tasvirlashda grafik usul sifatida foydalanadi va quyidagi ifoda yordamida tavsiflanadi:

$$f: U \subset \bigcup_{i=1}^{n} (R_n \cap V), \quad (4)$$

bu yerda, $U = U_1 \times U_2$ –kiruvchi fazo; V – chiquvchi fazo; R –risk darajasi.

Birinchi daraja: noravshan filtrlash. Bu daraja IP-manzil, paket vaqti va protokol turi, imitatsiya va paketlarni kuzatish kabi har bir paket bilan bog'liq ma'lumotlar asosida barcha kiruvchi paketlarni ushlab olish va tasniflashga asoslangan. Paket Petri noravshan tarmog'i orqali token bilan ifodalanadi va paketning ishlashi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishi uchun Petri noravshan tarmog'i mas'ul hisoblanadi. 10-rasm "a" da paketlarni filtrlash qoidalari algoritmining blok-sxemasi taqdim etilgan.

Ikkinchi daraja: noaniq filtrlash. Odatda, har bir tarmoqlararo ekranda u bilan bog'langan ikkita paketlar to'plami mavjud: tarmoqlararo ekran tomonidan qabul qilinadigan paketlar to'plami va tarmoqlararo ekran tomonidan bekor qilingan paketlar to'plami. 10-rasm "b" da paketlarni filtrlash qoidalari algoritmining blok-sxemasi taklif etilgan. Bunday holda, ikkita kirish va bitta chiqishga ega bo'lgan noravshan mantiq qo'llaniladi.



10-rasm "a". Paketlarni filtrlash qoidalari algoritmining blok-sxemasi (birinchi daraja: noravshan filtrlash)

Tarmoq paketlarini qabul qilish tezligi A_r va bekor qilish tezligi $R_r$ni tavsiflash uchun ikkita noravshan o'zgaruvchilar, jumladan "past" va "yuqori", ishlatiladi. Noravshan mantiqning natijasi trafikda bekor qilish va qabul qilish tezligini tavsiflovchi C_r hisoblangan miqdori bo'lib, uchta noravshan o'zgaruvchilar, jumladan yuqori bekor qilish darajasi, teng va yuqori qabul qilish darajasi bilan tavsiflanadi.



10-rasm "b". Paketlarni filtrlash qoidalari algoritmining blok-sxemasi (ikkinchi daraja: noravshan filtrlash)

Paketlarni filtrlash qoidalari algoritmlarini optimallashtirish. Quyida paketlarni filtrlash qoidalari algoritmlarining paketlarni ortiqchaligi kriteriyasi bo'yicha optimallashtirish amallari amalga oshirilgan. Har bir ortiqcha qoida trafik tahlilining murakkabligini va narxini oshiradi, shuning uchun ularning sonini kamaytirish tizimning barqaror ishlashiga imkon yaratadi.

Faraz qilaylik,

$Min \sum_{i=1}^{n} D_i \times x_i$ –maqsadli funksiya bo'lsin.

Bu yerda, $D_i - i$ qoidalari uchun ortiqchalik darajasi; $x_i - i$ qoidasining foydalanilishi (1) yoki foydalanmasligini (0) belgilovchi o'zgaruvchilar; n –paketlarni filtrlash qoidalarining soni.

Paketlarni filtrlash qoidalari ortiqchaligini minimallashtirish quyidagi chegaralar asosida belgilanadi:

1. $\sum_{i=1}^{n} a_{ij} \times x_i \geq b_j$ – xavfsizlik cheklovlari;
2. $\sum_{i=1}^{n} r_{ij} \times x_i \geq R_j$ – resurslar cheklovlari.

